



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 6, June, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Scientific and Legal Interpretations of the Concept of Startup

Authors: Doctor of Law, Professor Rakhmonkulova Nilufar Khodji-
Akbarovna,

Ismoilova Munira Farhod qizi

Master's student of International Business Law at the University of Economics
and Business

ismoilovamunira5558@gmail.com

Abstract: This article investigates the scientific and legal nature of the “startup” concept through a comparative legal analysis prism, encompassing international doctrine, the experiences of foreign jurisdictions (the USA, the EU, the UK, Singapore, and South Korea), and national legislative frameworks. Highlighting the evolutionary development of the startup phenomenon, the paper elucidates the conceptual polemics between the theoretical perspectives of leading international legal scholars and economists, such as Steve Blank, Eric Ries, Elizabeth Pollman, and Luca Enriques. Furthermore, it examines the research of domestic legal scholars regarding intellectual property and the civil law regulation of the startup ecosystem. By identifying the legal and practical deficiencies within the current definition found in the legislation of Uzbekistan, this study proposes a universal system of functional criteria aligned with international standards for the national legal framework.

Keywords: startup, innovation, venture financing, corporate law, regulatory arbitrage, intellectual property.

Startup Tushunchasining Ilmiy-Huquqiy Talqinlari

Mualliflar: Yuridik fanlar doktori, Professor Raxmonkulova Nilufar Xodji-
Akbarovna, JIDU Xaqlaro biznes huquqi yo'nalishi magistranti Ismoilova

Munira Farhod qizi

ismoilovamunira5558@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada “startap” tushunchasining ilmiy-huquqiy tabiati xalqaro doktrina, xorijiy davlatlar (AQSh, YI, Buyuk Britaniya, Singapur va Janubiy Koreya) tajribasi hamda milliy qonunchilik normalari prizmasida qiyosiy-huquqiy jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada startap fenomenining evolyutsion rivojlanishi yoritilib, Stiv Blank, Erik Ries, Elizabet Pollman va Luka Enriqes kabi yetakchi xalqaro huquqshunos hamda iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari o‘rtasidagi konseptual polemika ochib berilgan. Shuningdek, mahalliy huquqshunos olimlarning intellektual mulk va startaplarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish borasidagi tadqiqotlari o‘rganilgan. O‘zbekiston qonunchiligidagi amaldagi ta’rifning huquqiy va amaliy kamchiliklari ko‘rsatilib, milliy huquq tizimi uchun xalqaro standartlarga mos keluvchi universal funksional mezonlar tizimi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: startap, innovatsiya, venchur moliyalashtirish, korporativ huquq, tartibga solish arbitraji, intellektual mulk.

KIRISH

Sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va yuqori texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi startaplar fenomenini shunchaki biznes loyihasi emas, balki innovatsiyalarni hayotga tatbiq etuvchi asosiy huquqiy va iqtisodiy subyekt sifatida e’tirof etishni taqozo etmoqda. Global miqyosda davlatning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan uning startap ekotizimi barqarorligi va ushbu sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar darajasi bilan baholanmoqda. Biroq “startap” atamasi nisbatan yangi hodisa bo‘lishiga qaramay, uning ilmiy-huquqiy tabiatini aniqlash va an’anaviy tadbirkorlik subyektlaridan farqlash masalasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda huquqshunos olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida startaplarga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ko‘p hollarda ularni shunchaki “erta bosqichdagi yangi korxonalar” sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Bunday yuzaki yondashuv esa jiddiy huquqiy tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Chunki startap — bu o‘zining yuqori o‘sish sur’ati, ulkan kapitalga bo‘lgan ehtiyoji, intellektual mulk himoyasining hayotiy muhimligi hamda qaror qabul qilish jarayonlarining moslashuvchanligi bilan boshqa korporativ tuzilmalardan tubdan ajralib turadigan noyob subyektdir. Ilmiy adabiyotlarda unga “o‘ta yuqori noaniqlik sharoitida yangi mahsulot yaratish uchun mo‘ljallangan institut” yoki “takrorlanuvchi va miqyoslashuvchan biznes modelini izlash bilan band bo‘lgan vaqtinchalik tuzilma” sifatida ta’rif beriladi. Aynan mana shu “izlanish” holati startaplarni an’anaviy kichik va o‘rta biznes subyektlaridan ajratib turuvchi asosiy huquqiy chegara hisoblanadi.



O‘zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan. “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid prezident qarorlari va IT-Park faoliyatini tartibga soluvchi nizomlar milliy qonunchilikdagi huquqiy asosni tashkil etadi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori doirasida startap kompaniyaga dastlabki rasmiy ta‘rif ham berilgan. Biroq mazkur ta‘rif faqat davlat moliyalashtirish tizimi doirasida qo‘llaniladi va kengaytirilish salohiyati, venchur moliyalashtirish modeli hamda kompaniya yoshiga doir chegara kabi xalqaro standart mezonlarni o‘z ichiga olmaydi. Bu esa startapni mustaqil korporativ subyekt sifatida to‘liq identifikatsiya qilishda huquqiy bo‘shliqni saqlab qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi startap tushunchasining mazmun-mohiyatini xalqaro ilmiy doktrina va milliy normativ-huquqiy baza tahlili asosida oydinlashtirishdan iborat. Tadqiqot startapning huquqiy tabiatini belgilovchi fundamental belgilarni — yangilik, innovatsionlik, miqyoslanuvchanlik (scalability), maxsus moliyalashtirish mexanizmlari va strategik moslashuvchanlikni — ilmiy asoslab beradi hamda O‘zbekiston huquq tizimida startap tushunchasining o‘rni va takomillashtirilish yo‘nalishlarini belgilaydi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston qonunchiligida startap tushunchasini qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilgan ishlardan biri sifatida mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

1. Startap tushunchasining doktrinal talqinlari

Zamonaviy tadbirkorlik huquqi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri — “startap” tushunchasiga ilmiy jihatdan aniq ta‘rif berishdir. Ilmiy adabiyotlarga nazar tashlaganda, bu masalada yagona yondashuv mavjud emas, balki bir-birini to‘ldiradigan yoki ba‘zan qarama-qarshi bo‘lgan bir qancha doktrinalar mavjudligini ko‘rish mumkin.

“Startap” fenomenining huquqiy tabiatini tadqiq etish, avvalo, uning evolyutsion rivojlanishini tahlil qilishni talab etadi. 1970–1980-yillardagi dastlabki iqtisodiy yondashuvlarda startap asosan “yangi korxonalar” yoki “faoliyatining ilk bosqichidagi biznes subyektini” sifatida talqin qilinib, baholash mezoni kompaniyaning tashkil etilgan muddati bilan cheklangan edi (Keeble & Gudgin, 1978). Mazkur yondashuvda startapning innovatsion tabiati yoki biznes modelining o‘ziga xosligi emas, balki korxonaning “yoshligi” asosiy belgi sifatida e‘tirof etilgan.



Biroq 2000-yillardan boshlab innovatsion iqtisodiyot va korporativ huquq doktrinalarining o‘zaro integratsiyalashuvi natijasida startap tushunchasining mazmuni sezilarli ravishda o‘zgardi. Shu tariqa startap tushunchasi oddiy iqtisodiy kategoriya doirasidan chiqib, murakkab korporativ-huquqiy institut sifatida shakllanish jarayoniga kirib bordi.

Startap tushunchasiga dastlabki ilmiy ta’rifni bergan olimlardan biri Stenford va Kolumbiya universitetlari professori Stiv Blankdir. U o‘zining 2012-yilda nashr etilgan “The Startup Owner’s Manual” asarida startapni “takrorlanadigan va kengaytiriladigan biznes-modelni izlash uchun tashkil etilgan vaqtincha tuzilma” sifatida ta’riflaydi (Blank, 2012). Bu ta’rifda uchta kalit tushuncha ajralib turadi: birinchisi — “takrorlanadigan”, ya’ni kompaniya modeli bozorda muayyan tipdagi mijozlar uchun bir necha bor qo‘llanilishi mumkin; ikkinchisi — “kengaytiriladigan”, ya’ni kompaniya cheklangan resurslar bilan ham keskin o‘shish salohiyatiga ega; uchinchisi — “vaqtincha” ya’ni startap muayyan maqsad — o‘z biznes-modelini topish va tasdiqlash maqsadini amalga oshirgunga qadar mavjud bo‘ladi.

Blankning yondashuvi amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u startapni an’anaviy biznes subyektlaridan ajratib turuvchi operatsion belgilarni aniq ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, mazkur ta’rifning huquqiy nuqtai nazardan muayyan kamchiliklari ham mavjud. Xususan, Blank startapni mustaqil huquqiy institut sifatida emas, balki iqtisodiy jarayon yoki tashkiliy holat sifatida tavsiflaydi. Bundan tashqari, “vaqtinchalik” mezonining qo‘llanilishi huquqiy kategoriya tabiatiga to‘liq mos kelmaydi, chunki yuridik shaxslar, qoida tariqasida, ma’lum maqsadga erishgach avtomatik ravishda tugatilmaydi. Shu sababli Blank ta’rifi iqtisodiy doktrina uchun qimmatli bo‘lsa-da, huquqiy tartibga solish doirasi uchun yetarli asos bera olmaydi.

Startap tushunchasining rivojlanishida Erik Ries tomonidan ilgari surilgan “Lean Startup” konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. U o‘zining “The Lean Startup” asarida startapni “o‘ta noaniqlik sharoitida yangi mahsulot yoki xizmat yaratishga mo‘ljallangan inson instituti” sifatida ta’riflaydi (Ries, 2011). Ushbu asar bir milliondan ortiq nusxada sotilgan va o‘ttizdan ziyod tilga tarjima qilingan bo‘lib, zamonaviy startap ekotizimining nazariy asosini shakllantirgan manba sifatida tan olingan.



Ries ta'rifining muhim jihati shundaki, unda "institut" (institution) atamasi qo'llaniladi. Ushbu atama iqtisodiy ma'noda ishlatilgan bo'lsa-da, u o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-huquqiy mazmuni ham anglatadi. Chunki huquq nazariyasida institut tushunchasi muayyan qoidalar va normalar asosida faoliyat yurituvchi tizimni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, Riesning yondashuvi Blank modeliga qaraganda huquqiy talqinga nisbatan yaqinroq ko'rinadi.

Biroq Ries ta'rifidagi asosiy ziddiyat — "o'ta noaniqlik" mezonining huquqiy jihatdan aniq chegaralanmaganligidadir. Huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan qaysi darajadagi tavakkalchilik yoki noaniqlik startapni boshqa biznes shakllaridan ajratib turishini aniqlash murakkab hisoblanadi. Ries mazkur savolga aniq mezonlar asosida javob bermaydi. Natijada uning ta'rifi ham, xuddi Blank singari, iqtisodiy-menejment doktrinasida doirasida muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, huquqiy aniqlik talablarini to'liq javob berolmaydi.

Startup tushunchasining funksional mezonlarini aniqlash masalasi keyingi yillarda boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham rivojlantirildi. Xususan, Alexandra Andhov startapni identifikatsiya qilishda beshta fundamental element — yangilik, innovatsion xarakter, miqyoslanuvchanlik, o'ziga xos moliyalashtirish modeli hamda strategik moslashuvchanlikning o'zaro uyg'unligini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Ushbu yondashuv startapni oddiy "yosh kompaniya" emas, balki yuqori o'zgaruvchan iqtisodiy muhitga moslashuvchi murakkab biznes tuzilmasi sifatida tavsiflaydi (Andhov, 2020). Shu bilan birga, Pol Grem startapning asosiy belgisi sifatida uning tezkor o'sish salohiyatini ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, startapni an'anaviy tadbirkorlik subyektlaridan farqlovchi hal qiluvchi mezon — qisqa muddat ichida eksponensial iqtisodiy kengayish imkoniyatining mavjudligidir. Mazkur yondashuvda innovatsiya ikkilamchi omil sifatida qaralib, asosiy e'tibor biznes modelining yuqori sur'atlarda kengayish imkoniyatiga qaratiladi (Graham, 2012).

Sinisa Pekevski esa startapni an'anaviy kichik biznesdan farqli ravishda global bozorni egallashga yo'naltirilgan texnologik subyekt sifatida tavsiflaydi (Pekevski, 2025). Uning ta'kidlashicha, startapning mohiyati mahalliy iqtisodiy faoliyat yuritishda emas, balki qisqa vaqt ichida xalqaro miqyosda kengayish strategiyasiga egaligida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv startap fenomenining transmilliy va raqamli iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.



Pensilvaniya universiteti Carey huquq maktabining professori, korporativ huquq bo'yicha yetakchi mutaxassis Elizabet Pollman startup masalasiga mutlaqo boshqacha — huquqiy nuqtai nazardan yondashadi. Uning “Startup Governance” (*University of Pennsylvania Law Review*, 2019) va “Startup Failure” (*Duke Law Journal*, Vol. 73, 2023) asarlari startupning mustaqil huquqiy kategoriya sifatida shakllantirilishi zarurligini asoslab beradi. Pollman innovatsion, venchur moliyalashtirilgan startaplarni mavjud biznes-modellarni nusxalovchi oddiy kompaniyalardan tubdan farq qiluvchi subyektlar sifatida ko'radi va ushbu farqning qonunchilikda aks ettirilishi lozimligi haqida kuchli dalillar keltiradi (Pollman, 2023).

Pollmanning fikricha, startaplarni oddiy “xususiy kompaniya” yoki “kichik va o'rta biznes” toifasiga kiritish amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki bunday subyektlarda sarmoyadorlar va asoschilar o'rtasidagi munosabatlar, kapital strukturasi shakllanishi, korporativ boshqaruv mexanizmlari hamda biznesdan chiqish usullari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bois ular alohida tartibga solish modelini talab qiladi. Bundan tashqari, Pollman startaplarni “huquqiy o'zgarishlar agentlari” sifatida tavsiflaydi (Pollman & Barry, 2017). Uning ta'kidlashicha, startaplar nafaqat amaldagi qonunchilik doirasida faoliyat yuritadi, balki yangi huquqiy institutlarning shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uber va Airbnb kabi kompaniyalar faoliyati natijasida transport va qisqa muddatli ijara bozoriga oid qonunchilikning ko'plab davlatlarda qayta ko'rib chiqilgani mazkur pozitsiyaning amaliy tasdig'i hisoblanadi.

Pollman konsepsiyasining asosiy afzalligi shundaki, u startapni sof iqtisodiy kategoriya sifatida emas, balki mustaqil huquqiy munosabatlar subyekti sifatida ko'rib chiqish zaruratini asoslab beradi. Mazkur yondashuv zamonaviy innovatsion iqtisodiyot sharoitida korporativ huquqning transformatsiyalanayotgan tabiatini ham aks ettiradi.

Biroq startapni qonunchilikda qat'iy huquqiy kategoriya sifatida belgilash g'oyasi barcha olimlar tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanmaydi. Xususan, Oksford universiteti (2014—2025) va hozirda Bokkoni universiteti professori Luka Enriques ushbu masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Korporativ huquqning moslashuvchanligi bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biri hisoblangan Enriques startapni qat'iy normativ ta'rif bilan cheklash muayyan xavflarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi.



Enriques va uning hamkasblari 2026-yilda Yevropa Komissiyasining “EU Inc.” tashabbusini tanqidiy tahlil qilar ekan, qonunchilikda startapga aniq ta’rif berishning ikki tomonlama xavfini ko’rsatib o’tadi (Enriques et al., 2026; Giudici & Agstner, 2019). Birinchidan, haddan tashqari tor ta’rif innovatsion faoliyatning ayrim shakllarini tartibga solish doirasidan chetda qoldirishi mumkin. Ikkinchidan esa, ortiqcha keng ta’rif kompaniyalar tomonidan “startap maqomi”dan imtiyozlar olish maqsadida sun’iy foydalanishiga, ya’ni tartibga solish arbitrajiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu sababli Enriques startapni alohida huquqiy toifa sifatida belgilashdan ko’ra, “faoliyat mezonlari”ga asoslangan yondashuvni afzal deb hisoblaydi. Uning fikricha, kompaniya startap sifatida emas, balki innovatsionlik, o’sish sur’ati, investitsiya modeli kabi mezonlar asosida baholanishi lozim.

Bu pozitsiya Pollmanning alohida huquqiy kategoriya zarurligi to’g’risidagi fikriga bevosita qarshi turadi. Shu jihatdan, ikki olim o’rtasidagi nazariy polemika zamonaviy startap huquqi doktrinasining markaziy masalalaridan birini tashkil etadi.

Global miqyosda kechayotgan ushbu ilmiy munozaralar fonida, milliy huquqshunoslik maktabida ham startap ekotizimining fundamental poydevorlarini tadqiq etishga bo’lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Mamlakatimizda startap tushunchasi hali mustaqil tadqiqot predmeti sifatida keng ko’lamda o’rganilmagan bo’lsa-da, startaplar faoliyatining huquqiy ustunlaridan biri hisoblangan intellektual mulk huquqi institutlarini takomillashtirish masalalari qator mahalliy olimlar tomonidan tizimli tadqiq etilgan. Xususan, yuridik fanlar doktori, professor O.Oqyulov, shuningdek, B.Toshev, N.Imomov, Q.Mehmonov va A.Axmedovlarning ilmiy ishlarida intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va tijoratlashtirish masalalari atroflicha tahlil qilingan (Oqyulov va boshq., 2019). Startaplar faoliyatining innovatsion tadbirkorlik sifatidagi ayrim tashkiliy-huquqiy jihatlari esa O.Oqyulov hamda A.Axmedovning tadqiqotlarida o’z aksini topgan (Oqyulov va Axmedov, 2018).

O’zbekistonda startaplarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalasini mustaqil va yaxlit tadqiqot obyekti sifatida ilk bor o’rgangan tadqiqotchi A.Tojiboyev hisoblanadi. U o’zining doktorlik (PhD) dissertatsiyasida S.Blank va E.Ries kabi xalqaro namoyandalarning qarashlarini milliy huquqiy muhitga adaptatsiya qilgan holda, startapga “innovatsion va texnologik yangiliklardan iborat ishlanmalarni joriy etish va amalga oshirish uchun turli faoliyat maqsadlarni ko’zlaydigan loyiha asosida kengaytiriladigan biznes modelini tanlash uchun mo’ljallangan vaqtinchalik tuzilma yoinki oddiy shirkat yoki



jismoniy shaxs ko‘rinishidagi yakka tartibdagi tadbirkor” deya ta’rif beradi. Shuningdek, tadqiqotchi O‘zbekiston sharoiti uchun aynan Yevropa Ittifoqi modeliga xos bo‘lgan startap kompaniya mezonlari tizimini qonunchilikka joriy etishni huquqiy jihatdan asoslab bergan (Tojiboyev, 2021).

Bizning fikrimizcha, A.Tojiboyev tomonidan ilgari surilgan mazkur yondashuv milliy huquqshunoslikda startapning huquqiy tabiatini aks ettirishdagi muhim konseptual qadamdir. Ta’rifning ijobiy jihati shundaki, muallif startapni faqatgina yuridik shaxs doirasida cheklamay, uni oddiy shirkat (sheriklik) yoki yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT) shaklida ham mavjud bo‘lishi mumkinligini e’tirof etadi va uning fanda tan olingan “vaqtinchalik” hamda “kengaytiriluvchanlik” xususiyatlarini milliy huquqiy maydonga muvaffaqiyatli adaptatsiya qiladi.

Yuqorida tahlil qilingan doktrinalarni umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, Blank va Ries tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar startapning iqtisodiy va operatsion mohiyatini muvaffaqiyatli ochib beradi, biroq ular huquqiy kategoriya uchun zarur bo‘lgan aniqlik darajasini ta’minlamaydi. Pollman konsepsiyasi startapni mustaqil huquqiy institut sifatida ko‘rib chiqish zarurligini asoslab bersa, Enriques ushbu kategoriyaning normativ jihatdan belgilash bilan bog‘liq metodologik va amaliy xavflarni ko‘rsatib beradi.

Mazkur polemika shuni ko‘rsatadiki, startap tushunchasi hali ham shakllanish jarayonidagi dinamik huquqiy kategoriya hisoblanadi. Shu bilan birga, uni mutlaqo huquqiy tartibga solishdan tashqarida qoldirish ham maqsadga muvofiq emas. Chunki aniq huquqiy mezonlarning mavjud emasligi startaplarga nisbatan soliq imtiyozlari, investitsiyalarni himoya qilish mexanizmlari hamda korporativ boshqaruv standartlarini qo‘llashda amaliy muammolarni yuzaga keltiradi.

Shu munosabat bilan tadqiqot doirasida startapni mustaqil huquqiy kategoriya sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiq degan xulosani bildiramiz. Biroq bunday kategoriya qat’iy formal ta’rif asosida emas, balki funksional mezonlar tizimi orqali aniqlanishi lozim. Xususan, startap maqomini belgilashda innovatsion xarakter, kengaytirilish salohiyati, venchur moliyalashtirish modeli hamda kompaniyaning belgilangan yosh chegarasidan oshmaganligi kabi mezonlar kompleks tarzda hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir.

2. Startap tushunchasining huquqiy tabiati: O‘zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligi qiyosiy tahlili

“Startap” tushunchasiga ilmiy doktrinada yagona ta’rif mavjud emasligi yuqorida ko‘rib chiqildi. Biroq amaliy huquq nuqtai nazaridan muhimroq savol — bu tushuncha turli davlatlarning milliy qonunchiligida qanday



ifodalanganligidadir. Quyida AQSh, Yevropa Ittifoqi (xususan Ispaniya), Buyuk Britaniya, Singapur va Janubiy Koreya qonunchilik tajribalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining amaldagi huquqiy bazasi qiyosiy tarzda tahlil qilinadi.

AQSh qonunchiligi startapni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘riflamaydi. Biroq federal qonunchilik “yuksalayotgan o‘shish kompaniyasi” (emerging growth company, EGC) shaklida unga eng yaqin huquqiy kategoriyani shakllantirgan. 2012-yilda qabul qilingan “Jumpstart Our Business Startups Act” (JOBS Act, Pub. L. 112–106) ushbu toifani rasman belgiladi. EGC maqomini olish uchun kompaniyaning yillik yalpi daromadi 1 milliard dollardan kam bo‘lishi va aksiyalari ilk marta ochiq bozorga 2011-yil 8-dekabrda keyin chiqarilgan bo‘lishi talab etiladi (JOBS Act, 2012, § 101). EGC maqomidagi kompaniyalar soddalashtirilgan moliyaviy hisobot, yengillashtirilgan IPO tartibi va Sarbanes-Oxley qonunining ba‘zi qoidalarining qo‘llanmasligi kabi imtiyozlardan foydalanadi. Delaware General Corporation Law esa startaplar orasida eng keng tarqalgan tashkiliy-huquqiy asos bo‘lib, moslashuvchan korporativ tuzilma va ixtisoslashgan sudlar tizimi sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratadi.

AQSh modelining asosiy xususiyati — startap bu yerda moliyaviy mezon (daromad chegarasi) va IPO sanasi orqali belgilanadi. Bu yondashuv innovatsion xarakter yoki texnologik yo‘nalishni emas, balki kapitalbozorga kirish bosqichini asosiy mezon sifatida qabul qiladi.

Uzoq vaqt davomida Yevropa Ittifoqi (YI) miqyosida startapning yagona huquqiy ta‘rifi mavjud bo‘lmagan. Bu holat a‘zo davlatlar o‘rtasida huquqiy tarqoqlikni (fragmentatsiya) keltirib chiqargan. Natijada, bir mamlakatda “innovatsion startap” deb tan olingan kompaniya boshqa bir a‘zo davlatda qo‘llab-quvvatlash dasturlari yoki imtiyozlardan foydalana olmagan. Bunday huquqiy noaniqlik yagona bozor doirasida startaplarning erkin harakatlanishi va transc chegaraviy kengayishini (scaleup) cheklab qo‘ygan.

YI ichida startaplarni tizimli va izchil tartibga solishni birinchilardan bo‘lib Ispaniya amalga oshirdi. 2022-yil 1-dekabrda qabul qilingan “*Ley de Fomento del Ecosistema de las Empresas Emergentes*” (28/2022-sonli Qonun yoki mashhur nomi — *Ley de Startups*) Yevropa qonunchiligida bevosita startaplarga mo‘ljallangan birinchi maxsus qonun bo‘ldi. Ushbu qonun bilan amaliyotga “emerging company” (rivojlanayotgan kompaniya) modeli olib kirildi. Ushbu qonunga ko‘ra, kompaniya startap maqomini olishi uchun bir qator aniq mezonlarga javob berishi shart. Xususan, kompaniya tashkil etilganidan buyon 5-7 yildan oshmagan bo‘lishi, yillik aylanmasi 10 million yevrodan yuqori bo‘lmasligi, fond birjasida ro‘yxatdan o‘tmagan va dividendlar taqsimlamagan



bo‘lishi lozim. Shuningdek, mahalliylik prinsipi asosida kompaniya Ispaniyada doimiy joylashgan bo‘lishi va xodimlarining kamida 60 foizi milliy mehnat shartnomasi asosida ishlashi talab etiladi (Ley 28/2022, Art. 4).

Ushbu modelning eng muhim yangiligi — “innovatsion xarakter”ni baholash va akkreditatsiya qilish vakolatining maxsus davlat organi — ENISA (*Empresa Nacional de Innovación*) ga berilganligidir. Bundan tashqari, ushbu qonun doirasida startaplar uchun korporativ soliq stavkasi 25% dan 15% gacha tushirildi, xorijiy mutaxassislar uchun maxsus vizalar (raqamli ko‘chmanchilar vizasi) va huquqiy tajribalar o‘tkazish uchun tartibga solish sandboslari joriy etildi.

Ispaniyaning muvaffaqiyatli tajribasi keyinchalik ittifoq darajasida umumlashtirildi. Bu boradagi tub burilish nuqtasi 2026-yil 18-martda Yevropa Komissiyasi tomonidan qabul qilingan Commission Recommendation (EU) 2026/720 bo‘ldi — Yevropa huquqi tarixida startap maqomini YI darajasida rasman unifikatsiya qilgan ilk hujjat. Mazkur Tavsiyanomada “innovatsion startap” maqomi uchun ancha moslashuvchan va zamonaviy mezonlar belgilandi. Hujjatga ko‘ra, innovatsiya faqat texnologik kashfiyotlar bilan cheklanmaydi; kompaniya so‘nggi 3 yilda joriy bozor holatiga nisbatan tubdan yangi mahsulot, xizmat yoki biznes-jarayonni tijoratlashtirish maqsadida ishlab chiqqanini isbotlashi kifoya.

Shuningdek, Tavsiyanomada startap yoshi chegarasi 10 yil etib belgilandi, bu esa uzoq tadqiqot siklini talab qiladigan yuqori texnologiyali loyihalarni ham qamrab olish imkonini berdi. Xodimlar sonining maksimal chegarasi esa 99 nafar etib belgilandi. Shu tariqa, Ispaniyaning ichki qonunchilik tajribasi YI miqyosidagi umumiy yondashuv uchun amaliy pretsedent bo‘lib xizmat qildi (Commission Recommendation (EU) 2026/720, 2026), Komissiyaning 2026-yilgi hujjati esa bu jarayonni ittifoq darajasida mantiqiy yakuniga yetkazdi.

Buyuk Britaniya qonunchiligi AQSh va Ispaniyadan farqli o‘laroq, startapga bevosita ta’rif bermaydi. Biroq davlat bir qator sxemalar orqali startapni bilvosita belgilaydi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Asosiy mexanizm — Seed Enterprise Investment Scheme (SEIS) va Enterprise Investment Scheme (EIS) — erta bosqichdagi kompaniyalarga investitsiya jalb qilish uchun soliq imtiyozlari beradi. 2023-yil apreldan kuchga kirgan yangilangan qoidalarga ko‘ra, SEIS bo‘yicha startap maqomiga ega bo‘lish uchun kompaniya 3 yildan kam muddat faoliyat yuritgan bo‘lishi; aktiv qiymati 350,000 funt sterlingdan oshmasligi; xodimlar soni 25 nafardan kam bo‘lishi va fond birjasida ro‘yxatdan o‘tmasligi talab etiladi. SEIS doirasida kompaniya 250,000 funt sterlinggacha sarmoya jalb



qilishi mumkin, sarmoyadorlarga esa 50 foiz daromad solig'i imtiyozi beriladi (Finance (No. 2) Act 2023, UK).

Kompaniyalar o'sib, keyingi bosqichga o'tganida esa Britaniyaning 2022-yilda joriy etilgan "Scale-up Visa" dasturi ishga tushadi. Ushbu dasturda "tez o'sayotgan kompaniya" (scaleup) tushunchasiga aniq mezon berilgan. Unga ko'ra, kompaniya so'nggi 3 yilda xodimlar soni yoki yillik aylanmasi bo'yicha har yili kamida 20 foiz o'sgan bo'lishi kerak. Shuningdek, shu davr boshida kompaniyada kamida 10 nafar xodim ishlagan bo'lishi shart (Immigration Rules, Appendix Scale-up, 2022). Bu ta'rif Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) uslubiga asoslangan bo'lib, unda kompaniyaning o'sish sur'ati asosiy belgi qilib olingan.

Shunday qilib, Britaniya modeli startapni mustaqil huquqiy toifa emas, balki muayyan moliyaviy va operatsion mezonlarga javob beruvchi "investitsiya sxemasiga layoqatli kompaniya" sifatida ko'radi.

Singapurning Kompaniyalar to'g'risidagi qonun ("*Companies Act*") hujjati startapni alohida huquqiy kategoriya sifatida belgilamaydi. Biroq davlat tomonidan boshqariladigan "Startup SG" dasturlar tizimi orqali startaplarga nisbatan aniq funksional mezonlar qo'llaniladi. Xususan, "Startup SG Equity" dasturi qoidalari bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish uchun kompaniya bir nechta talablarga javob berishi lozim. Avvalo, kompaniya Singapurda rasman ro'yxatdan o'tgan va o'zining asosiy faoliyatini aynan shu yerda olib borayotgan bo'lishi shart. Shuningdek, u yuqori texnologik hamda innovatsion salohiyatga ega bo'lishi, o'zining intellektual mulkini yarata olgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, kompaniya kelajakda xalqaro miqyosda o'sish va kengayish (scale-up) imkoniyatini amalda isbotlashi talab etiladi (Startup SG Equity Criteria, Enterprise Singapore, 2023).

Singapur modelining yana bir muhim huquqiy ustunligi — bu soliq qonunchiligidagi alohida imtiyozlar tizimidir. Yangi tashkil etilgan innovatsion kompaniyalar ro'yxatdan o'tganidan keyingi dastlabki 3 yil davomida korporativ daromad solig'ini to'lashdan sezilarli darajada ozod qilinadi (Income Tax Act 1947, Singapore, s. 43). Venchur moliyalashtirish uchun maxsus moslashtirilgan moslashuvchan huquqiy muhit Singapurni nafaqat Osiyo mintaqasida, balki butun dunyoda yetakchi startap ekotizimlaridan biriga aylantirgan.

Janubiy Koreya startaplarga nisbatan eng tizimli davlat sertifikatitsiyasi mexanizmini yaratgan mamlakatlardan biridir. "Venture biznesini rivojlantirishga doir maxsus chora-tadbirlar to'g'risidagi qonun" (Act on Special Measures for the Promotion of Venture Businesses, 2024) doirasida rasmiy startap maqomini olish va davlat ro'yxatidan o'tish uchun kompaniya bir nechta



qat'iy talablarga javob bera olishi shart. Bunda korxonaning boshlang'ich investitsiya hajmi, uning ilmiy-tadqiqot (R&D) xarajatlarining ulushi hamda innovatsion texnologik salohiyati maxsus davlat organlari tomonidan baholanadi. Koreya modelining o'ziga xos jihati ham aynan mana shu rasmiy baholash va sertifikatlash tizimining mavjudligidir. Sertifikat berilgach, ushbu yangi kompaniyalarga soliq imtiyozlari, arzonlashtirilgan moliyaviy resurslar va infratuzilmaviy yordam paketlari avtomatik ravishda taqdim etiladi. Bu rasmiy maqom xususiy investorlardan qo'shimcha sarmoyalar jalb qilishda ham o'ziga xos ishonch belgisi vazifasini o'taydi.

Janubiy Koreya qonunchiligida nafaqat mahalliy, balki xorijiy startap loyihalarini tartibga solishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada 2023-yilda qabul qilingan "Startup Support Act" (Startaplarni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonun) hujjati muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qonun bilan qonunchilik amaliyotiga ilk bor "xorijiy startap" tushunchasi kiritildi va uning huquqiy maqomi mustahkamlandi. Bu xalqaro miqyosdagi innovatsion loyihalarni rag'batlantirish uchun joriy etilgan o'ziga xos mexanizmdir. Unga ko'ra, Janubiy Koreya fuqarolari yoki mahalliy kompaniyalari tomonidan xorijda tashkil etilgan hamda faoliyat yuritayotganiga 7 yildan ko'p bo'lmagan xorijiy korporatsiyalar "xorijiy startap" deb tan olinadi (Startup Support Act, Art. 2, 2023). Ushbu huquqiy yondashuv koreyalik tadbirkorlarning transchegaraviy startap loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularga xalqaro bozorlarga chiqishida huquqiy va moliyaviy yordam ko'rsatish imkonini beradi.

O'zbekiston qonunchiligida "startap" tushunchasiga ilk rasmiy ta'rif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori 2-ilovasida berilgan. Mazkur Nizomga ko'ra: "startap kompaniya — ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat natijalarini ilgari surish hamda tijoratlashtirish uchun tashkil etiladigan yuridik shaxs" (VMQ 133-son, 2020-yil, 2-ilova). Ta'rifda uchta muhim huquqiy unsur mavjud. Bular startapning yuridik shaxs sifatida belgilanishi — huquqiy subyektlilikni tan olishda muhim qadam; ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat natijalariga asoslanish sharti — innovatsion xarakter mezon sifatida; hamda ushbu natijalarni tijoratlashtirish asosiy maqsad sifatida belgilanishi — bu startapni sof ilmiy-tadqiqot muassasasidan farqlantiruvchi belgi.

Shu bilan birga, mazkur ta'rifning bir qator muhim kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ularni xorijiy qonunchilik tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilganda aniq ko'rish mumkin.

Birinchi kamchilik — farqlovchi mezonlarning yo'qligi. Ta'rif startapni boshqa yuridik shaxs turlaridan — xususan, oddiy texnologik kompaniya, ilmiy-



ishlab chiqarish birlashmasi yoki umumiy MChJdan — aniq ajratib beruvchi mezonlar tizimini o‘z ichiga olmaydi. Bunday mezonlar yo‘q ekan, istalgan innovatsion faoliyat yurituvchi yuridik shaxs nazariy jihatdan startap deb talqin qilinishi mumkin.

Ikkinchi kamchilik — xalqaro standart mezonlarining kiritilmaganligi. Ispaniya (Ley 28/2022), Buyuk Britaniya (Finance Act 2023), Janubiy Koreya (Venture Act) va Yevropa Komissiyasi Tavsiyasi (2026/720) kabi qonunchilik tajribalarida startapning asosiy belgilari sifatida tan olingan mezonlar — kengaytirilish salohiyati (*scalability*), venchur moliyalashtirish modeli, kompaniya yoshiga doir chegara — O‘zbekiston ta’rifida umuman ko‘rsatilmagan.

Uchinchi kamchilik — ta’rifning qo‘llanish doirasi. 133-son qaror doirasidagi ta’rif faqat davlat moliyalashtirish tizimi uchun ishlab chiqilgan bo‘lib u startap loyiha tanlovlarida ishtirok etish huquqini belgilash maqsadida qo‘llaniladi. Korporativ huquq, sarmoyadorlar himoyasi, soliq imtiyozlari yoki korporativ boshqaruv sohasida esa bu ta’rif qo‘llanilmaydi. Binobarin, amalda startap maqomi birinchi navbatda moliyalashtirish munosabatlari kontekstida ahamiyat kasb etadi, mustaqil universal huquqiy kategoriya sifatida emas.

Ushbu asosiy hujjat bilan bir qatorda startap institutiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ikki qo‘shimcha me’yoriy asos ham mavjud. 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qaror IT-Park rezidentlari uchun soliq va bojxona imtiyozlarini belgilab, startap-loyihalarni tanlash tartibini nazarda tutgan — biroq bu hujjatda ham startapga mustaqil huquqiy ta’rif berilmay, u faqat “IT-Park loyiha yo‘nalishlari” doirasida tilga olingan. 2022-yil 15-oktyabrdagi 606-son qaror esa “Inno” texnoparkini tashkil etish tartibini belgilab, startap loyihalarni texnopark tizimida moliyalashtirish sxemasini yanada kengaytirgan bo‘lsa-da, biroq ushbu qarorga ko‘ra texnopark rezidenti bo‘lish uchun kichik tadbirkorlik subyektiga mansub yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lish talab etiladi — bu esa startapning o‘ziga xos huquqiy toifa sifatida alohida tartibga solinmaganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, StartupBlink tomonidan e’lon qilingan Global Startup Ecosystem Index 2026 reytingiga ko‘ra, O‘zbekiston startap ekotizimi bir yil ichida 225 foizdan ortiq o‘shish ko‘rsatib, “Yil mamlakati” sifatida e’tirof etildi; mamlakatimiz global reytingda 79-o‘ringa ko‘tarildi, Toshkent esa Markaziy Osiyodagi eng yuqori reytingga ega startap shahri bo‘ldi (StartupBlink, 2026). Bu raqamlar ekotizimning amaliy rivojlanishi huquqiy bazani yangilash zaruriyatini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston qonunchiligi startap tushunchasiga formal ta’rif bergan va bu huquqiy tartibga solishdagi dastlabki muhim qadam



hisoblanadi. Biroq mavjud ta'rif — mavqei jihatidan moliyalashtirish vositasi, mazmuni jihatidan esa mezonlar tizimidan mahrum. Mazkur ta'rifni xorijiy qonunchilik tajribasida sinovdan o'tgan funksional mezonlar tizimiga asoslanib takomillashtirish dolzarb huquqiy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ko'rib chiqilgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, startapni qonunchilikda belgilashning ikki asosiy modeli mavjud: birinchi model — bevosita ta'rif (Ispaniya, Janubiy Koreya), ya'ni qonunda aniq mezonlar majmuasi belgilanadi; ikkinchi model — bilvosita tartibga solish (AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur), ya'ni startap alohida huquqiy toifa emas, balki muayyan sxemalar uchun layoqatli kompaniya sifatida belgilanadi. O'zbekiston esa uchinchi, o'tish bosqichidagi holatni namoyon etadi ya'ni mamlakatimiz qonunchiligida startapga ta'rif berilgan, biroq u faqat davlat moliyalashtirish tizimi doirasida qo'llaniladi va mezonlar tizimi shakllantirilmagan. Shu jihatdan O'zbekiston modeli hali to'liq shakllanmagan, takomillashtirilishni talab qiluvchi boshlang'ich bosqich sifatida baholanishi lozim.

XULOSA

Mazkur tadqiqot startap tushunchasining ilmiy doktrina va milliy qonunchiliklar kontekstida tahlili asosida bir qator muhim xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, ilmiy doktrinada startapga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Blank va Ries startapni iqtisodiy jarayon sifatida ta'riflasa, Pollman uni mustaqil huquqiy kategoriya sifatida shakllantirilishi zarurligini asoslab beradi, Enriques esa bunday kategoriyani normativ jihatdan belgilash bilan bog'liq tartibga solish arbitraji xavfini ko'rsatib beradi. Ushbu polemika startap tushunchasining hali shakllanish jarayonidagi dinamik huquqiy kategoriya ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasi ko'rsatadiki, tartibga solishning bevosita (Ispaniya, Janubiy Koreya) va bilvosita (AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur) modellari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z imtiyozlari va cheklolariga ega. EU Komissiyasining 2026-yilgi Tavsiyanoma hujjati esa ittifoq darajasida birinchi marta startap maqomini unifikatsiya qilgan me'yoriy hujjat sifatida yangi bosqichni belgilab berdi.

Uchinchidan, O'zbekiston qonunchiligi VMQ 133/2020 orqali startapga ta'rif bergan bo'lsa-da, mavjud ta'rif aniq belgilangan mezonlar tizimiga ega emas va faqat davlat moliyalashtirish tizimi doirasida qo'llaniladi. Buning amaliy oqibati sifatida startaplarga nisbatan korporativ huquq, investorlar himoyasi va soliq imtiyozlari sohasida huquqiy aniqlik ta'minlanmagan holda qolmoqda.



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 6, June, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Biz startapni mustaqil huquqiy kategoriya sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Biroq bunday kategoriya qat'iy formal ta'rif asosida emas, balki funksional mezonlar tizimi orqali aniqlanishi lozim. Xorijiy tajriba, xususan Ispaniya va EU 2026/720 Tavsiyanoma hujjati asosida, O'zbekiston qonunchiligi uchun quyidagi mezonlar majmui taklif etamiz: kompaniyaning innovatsion xarakteri (ENISA analogiga o'xshash akkreditatsiya organi tomonidan tasdiqlanadigan); kengaytirilish salohiyati; tashkil etilganidan beri o'tgan vaqt chegarasi (7 yildan oshmasligi); xodimlar soni chegarasi; hamda venchur yoki boshlang'ich moliyalashtirish modeli. Ushbu mezonlarni O'zbekiston tadbirkorlik huquqiga kiritish — ekotizim o'sishini huquqiy asoslar bilan mustahkamlash, investitsiyalar himoyasini ta'minlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun zarur keyingi qadam hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Act on Special Measures for the Promotion of Venture Businesses (Republic of Korea). (2024, last amended).
2. Andhov, A. (2020). Importance of start-up law for our legal systems. In A. Andhov (Ed.), *Start-up Law: A Practical Guide* (pp. 1–22). Edward Elgar Publishing.
3. Blank, S. (2012). *The Startup Owner's Manual: The Step-By-Step Guide for Building a Great Company*. K&S Ranch Publishing.
4. Commission Recommendation (EU) 2026/720 of 18 March 2026 on the definition of innovative enterprises, innovative startups and innovative scaleups. *Official Journal of the European Union*.
5. Enterprise Singapore. (2023). *Startup SG Equity: Eligibility criteria*. <https://www.startupsg.gov.sg>
6. Enriques, L., et al. (2026). EU Inc. and the future of European startup law: A critical assessment. *ECGI Law Working Paper*.
7. Enriques, L., Gilotta, S., & Tröger, T. (2023). The case against a special regime for intragroup transactions. *ECGI Law Working Paper No. 641*.
8. Finance (No. 2) Act 2023 (UK). His Majesty's Stationery Office.
9. Giudici, G., & Agstner, P. (2019). Startups and company law: The competitive pressure of Delaware on Italian (and European) corporate law. *European Business Organization Law Review*, 20(4), 597–634.
10. Graham, P. (2012). *Startup = growth*. [paulgraham.com](http://www.paulgraham.com/growth.html).
11. Immigration Rules, Appendix Scale-up. (2022). UK Home Office.
12. Income Tax Act 1947 (Singapore, Chapter 134, s. 43).
13. Jumpstart Our Business Startups Act (JOBS Act), Pub. L. 112-106, 126 Stat. 306 (2012).
14. Keeble, D., & Gudgin, G. (1978). Industrial growth in the British regions. *Regional Studies*, 12(2), 229–243.
15. Ley 28/2022, de 21 de diciembre, de fomento del ecosistema de las empresas emergentes. *Boletín Oficial del Estado*, núm. 306, 22.12.2022.
16. Oqyulov, O., & Axmedov, A. (2018). Innovatsion faoliyat sub'yektlarini huquqiy tartibga solish muammolari. *Huquqiy tadqiqotlar jurnali*, 3(2), 12–18.



17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qarori “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
18. Oqyulov, O., Toshev, Axmedov, A. (2019). Intellektual mulk huquqi institutlarini takomillashtirish muammolari. TDYUU nashriyoti.
19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori, 2-ilova: “Startup” loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom.
20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktyabrdagi 606-son qarori “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
21. Pekevski, S. (2025). *What is a startup?* ResearchGate. <https://www.researchgate.net/publication/393280077>
22. Pollman, E. (2019). Startup governance. *University of Pennsylvania Law Review*, 168(1), 155–230.
23. Pollman, E. (2023). Startup failure. *Duke Law Journal*, 73(2), 327–386.
24. Pollman, E., & Barry, J. M. (2017). Regulatory entrepreneurship. *Southern California Law Review*, 90(3), 383–448.
25. Ries, E. (2011). *The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses*. Crown Business.
26. StartupBlink. (2026). *Global Startup Ecosystem Index 2026*. <https://www.startupblink.com/>
27. Startup Support Act (Republic of Korea). (2023, February 27).
28. Tojiboyev, A. Z. (2021). Startaplar faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent davlat yuridik universiteti